

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MILLIY TARBIYALANGANLIK MEZONLARI

**Baxtiyor Xolmirzayev**

NamDU Jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy g'ururini mustahkamligi, irodasini baquvvatligi, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol inson bo'lib tarbiyalanganligi, tafakkurida o'zligini unutmaganligi, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylab, hurmat qilish fazilatini qaror topganligiga doir milliy tarbiyalanganlik mezonlari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy g'urur, mezon, mutaffakir, tarbiya, axloq, ma'naviy, hukamo, xulq, ommaviy madaniyat, vijdon, ong.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlarning mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu esa sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish, uning qamrovini keng olib borish hamda samaradorligini oshirish vazifasini qo'yadi. Mazkur ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyalanganlik mezonlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Tarbiya haqida umumiy tushuncha va buyuk mutaffakirlarimizning qarashlariga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi[1].

Hukamolardan biri: – “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur[2]”. Yetuk hikmat egasi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir[3]” deya takidlab o'tganlar. Tarbiya haqida chuqur va keng ma'noda atroflicha fikr yuritish mumkin... Yosh avlodning milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda milliy tarbiya ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish ularni Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilishga undaydi.

Milliy tarbiya – yoshlarning milliy g'ururini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalashda eng muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy tarbiya – yoshlarning tafakkurida o‘zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, “Men o‘zbek farzandiman” deb g‘urur va iftixor bilan yashashiga undovchi ulkan kuchdir.

Milliy tarbiya o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlari shakllantiriladi. Bu fazilatlarni qanchalik darajada shakllanganligini bilish maqsadida, quyidagi mezonlarni ishlab chiqildi.

**I – IV SINF O‘QUVCHILARINING MILLIY TARBIYALANGANLIK  
MEZONLARINI BAHOLASH**

**Vatanni anglash**

Yuqori daraja	Har bir kishi vatani bo‘lishini va o‘zining Vatani – O‘zbekiston ekanini yaxshi biladi; tug‘ilib o‘sgan Vatani O‘zbekiston haqida ifodali misollar bilan fikr yurita oladi. Har bir o‘quvchi O‘zbekiston, o‘lka, tarix, hozirgi hayot, mustaqillik, islohotlar yutuqlari haqida yoshiga mos tushunchalarga ega; Vatanni tashqi dushmanlardan himoya qilgan qahramonlar jasorati haqida faol hikoya qilib bera oladi; ularga o‘xshashga harakat qiladi; O‘zbekiston davlat ramzlari, Prezidenti haqida hikoya qilib bera oladi.
O‘rta daraja	Vatani – O‘zbekistonligini biladi; o‘lka tarixi, hozirgi hayoti haqida tushunchalar bera oladi. Vatanning tarixi, himoyachilarining jasoratidan xabardor; O‘zbekiston davlat ramzlarini biladi.
Past daraja	Vatan haqidagi tushunchalari mavhum; O‘zbekiston tarixi, hozirgi hayoti haqida tushunchalari to‘liq emas; Vatan himoyachilari, ularning jasoratlari haqida bilimlari darajasi past; O‘zbekiston ramzlari haqida tasavurlari xira.
Qoniqarsiz daraja	Vatani – O‘zbekiston haqida tushunchalarga ega emas; Vatan himoyachilarini, tarixini bilmaydi va befarq; O‘zbekiston davlat ramzlarini tanimaydi.

**Milliy g‘urur**

Yuqori daraja	Dunyoda millatlar ko‘pligi, o‘zining ana shulardan biri – o‘zbek xalqiga mansubligini puxta, qoniqish bilan ijobiy anglaydi; «O‘zbek xalqi» tushunchasining madaniy mohiyatini yaxshi tushunadi; o‘zining xalq o‘g‘li, qizi sifatida burchlarini chuqur anglaydi; o‘zbek tilida ravon, toza so‘zlaydi va bunda boshqalarga yordam beradi.
O‘rta daraja	O‘zining o‘zbek xalqiga mansubligini anglaydi; «o‘zbek xalqiy» tushunchasini ochib bera oladi; undan o‘z xalqi nimalarni kutayotganini biladi; o‘zbek tilida ravon, to‘g‘ri so‘zlaydi.
Qoniqarsiz daraja	O‘zining qaysi xalqqa mansubligini anglamaydi; xalq oldidagi burch tushunchasiga ega emas; ona tiliga loqayd munosavatta.

**Milliy odob-axloq**

Yuqori daraja	Doimo, hamma joyda atrofda qilargalarga «assalomu alaykum» deyishni kanda qilmaydi; xalq ichida «yaxshi xulq», «yomon xulq» deb vaholangan xatti-harakatlarni juda faol farqlaydi va o‘z munosabatini bildiradi; barchani «siz»laydi, o‘zidan katta va kichikni doimo izzatlaydi; sinfdagi, ko‘cha, mahalla, qishlog‘idagi do‘stlarining o‘qishi, ishlaridan doimo xabardor; muallim-ustozni samimiy hurmat qiladi; uyat so‘z, so‘kishni hatto urishgan paytida ham tilga olmaydi; bolalarni yuqoridagi sifatlarni egallashga rag‘batlantiradi; ota-ona, oila a‘zolariga mehrini so‘zda ham, muomalada ham, amalda ham, ular borliklarida ham, yo‘qliklarida ham doimo namoyon qilib turadi; barcha qarindoshlarining ismlari, yaqinlik darajalarini mukammal biladi va faxr bilan aytib yuradi; aka-opasini, ota-onasini sevadi; ajdodlari haqida hikoya qilib bera oladi.
---------------	---

O'rta daraja	O'zidan kattalarga «assalomu alaykum» deb salom beradi; «yaxshi xulq»ni «yomon xulq»dan ajrata oladi; o'zidan katta o'qubchilarni ham «siz»laydi; sinfdoshlari, do'stlari hayotidan xavardor, muallimlarni maktabda, sinfda hurmat qiladi; o'g'il va qiz bolalarga bir xil munosabat bildiradi; so'kinmaydi; ota-onasiga so'zda, muomalada, amalda mehrini namoyon qilib turadi; barcha qarindoshlarining nomlari, ajdodlarining tarixini biladi; aka-opalarini hurmat qiladi; bobo-bubilarini izzatlaydi, xizmatlarini bajaradi.
Past daraja	Onda-sonda kattalarga salom berib turadi; «yaxshi xulq» va «yomon xulq»larning farqini bilmaydi; do'stligi manfaat asosiga qurilgan, o'tkinchi; atrofdagilarga dag'al, befarqlik bilan munosabatda bo'ladi; qizishgan paytida uyat so'zlarni ishlatadi, so'kinadi, ota-onasiga mehri past; qarindoshlarining kimlikla-riga qiziqmaydi, aka-opalari bilan munosavati yaxshi emas; bobo-bubilarining izzatini joyiga qo'ymaydi.
Qoniqarsiz daraja	Nazorat qilinmayotgan paytida hech kimga salom bermaydi; yomon xulqning yomonligini bila turib yoqlaydi, namoyon qiladi; samimiy do'sti yo'q; muallimlarni masxara qiladi; muomalasi qo'pol, dilozor; uyat so'z, so'kish-larni ko'p ishlatadi; ota-onasiga mehirsiz; qarindoshlarini hurmat qilmaydi; aka-opalari bilan ko'p urishadi; bobo-bubilarini pisand qilmaydi.
<b>Vijdoniylilik</b>	
Yuqori daraja	Doimo va hamma joyda rost gapiradi; yaxshi xulqqa ijobiy, yomon xulqqa salbiy munosabatini doimo amalda bildiradi; ko'nglidagi gapni, fikrni ochiq mukammal ifodalay oladi; aytgan so'zi bilan uning amali doimo va hamma joyda mos keladi.
O'rta daraja	Rost gapirishi kerak bo'lgan vaziyatlarda indamaydi yoki yolg'on aralashtirib so'zlaydi; yaxshi va yomon xulq-larni farqlamaydi va ularning namoyon qilinishiga befarqligini ko'rsatadi; aytgan so'zi va amali orasida tafobutlar ko'p uchraydi.
Qoniqarsiz daraja	O'z foydasini ko'zlab, ongli rabishda yolg'on gapiradi; yomon xulq namunalarini qo'llab-quvvatlaydi va o'zida namoyon qiladi; so'zi va ishi bir-biriga zid.
<b>Mafkuraviy onglilik darajasi</b>	
Yuqori daraja	Barchani teng ko'radi; ko'cha, guzar, qishloq, mahalla, millat, qarindoshchilikka qarab ajratish, imtiyoz berish, cheklashga qarshi turadi; o'zbek xalq allomalari hayoti, xizmatini yaxshi biladi, o'makli misollar keltiradi; O'zbekiston barcha o'zbekistonliklarning yagona Vatani ekanini targ'ibot qiladi. Ma'naviy tahdidlarni, ularning tarixini, zararini yaxshi biladi. Ularga qarshi kurashga da'vat etadi.
O'rta daraja	Barchani teng ko'rishni ma'qullaydi; o'zbek xalqi allomalari hayoti, qilgan xizmatlari haqida tushunchalarga ega; o'z Vatani O'zbekiston ekanini anglaydi.
Past daraja	Mahalliychilik, qarindoshchilik, o'g'il va qiz bolaga qarab ajratishni ma'qul ko'radi; o'zbek xalqi allomalari hayoti, xizmatlari haqida bilimlari yuzaki.
Qoniqarsiz daraja	«Boshqa mahalladan», «boshqa millatdan», «qarindosh, begona» deb sinf bolalarini ajratadi; bir-biriga qarshi qo'yadi; o'zbek xalqining allomalari, ularning merosi bilan qiziqmaydi, «ommaviy madaniyat», xorijiy narsalarga o'ch va ularni targ'ib qiladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyalanganlik mezonlarini baholash mavzusi orqaliy ulkan muammolar zanjirining bir xalqasigina tadqiq qilindi. Kelgusida barchaga ma'lum muammolar zanjiri bir necha mavzular vositasida tizimli ravishda o'rganilishi ish jarayonida ko'zga tashlandi. Umid qilamizki, bu kabi ko'lamdor ishlarni amalga oshirishda biz ham munosib xissamizni qo'shamiz!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq Toshkent, Tip.Lit “Par. Sots. Revolyuts” 1917 y. B.4.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq Toshkent, Tip.Lit “Par. Sots. Revolyuts” 1917 y. B.6.

